

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

IYUL/7-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



ISSN: 3060-463X



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'aforovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

|  |     |
|--|-----|
| MILLIY GVARDIYA TIZIMIDA HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASH TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI .....   | 10  |
| <b>Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li</b>  |     |
| FOND BOZORLARIGA XORIJIY KAPITALNI JALB QILISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI .....  | 17  |
| <b>Yusupova Jamila Karamatdinovna</b>  |     |
| AXBOROT KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINING TASHKLIY-HUQUQIY VA ILMIY NAZARIY MASALALARI .....   | 21  |
| <b>Rajaboyev Shahboz Shodi o'g'li</b>  |     |
| PUL MABLAG'LARI HISOBINI MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O'TKAZISHNING DOLZARB MASALALARI .....   | 26  |
| <b>Eshonqulov Akmal Qudratovich</b>  |     |
| XORAZM VILOYATINING IJOBIY IMIJINI OSHIRISHDA HUDUDIY MARKETING STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISH .....   | 34  |
| <b>Ibadullayev Dilshad Ibragimovich</b>  |     |
| OROL BO'YI MINTAQASIDA QISHLOQ XO'JALIGI VA TURIZMNI YASHIL MOLIVALASHTIRISH VA INVESTITSIYA MEXANIZMLARI: BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI .....   | 40  |
| <b>Akramova Feruza</b>   |     |
| ATMOSFERA HAVOSI MONITORINGIDA IOT SENSORLARI O'LCHASH NATIJALARINING METROLOGIK ISHONCHLILIGINI BAHOLASH VA OSHIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH .....   | 52  |
| <b>Sobirov Anvarjon, Melibayev Maxmudjan</b>   |     |
| BANK VA KREDIT MUASSASALARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TREND MODELARI YORDAMIDA TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASH USULLARI .....  | 59  |
| <b>Nazarov Elbek</b>   |     |
| PHYSALIS ALKEKENG I O'SIMLIGIDAN FLAVONOIDLARNI AJRATIB OLIHNING BIOTEKNOLOGIK USULLARI VA JARAYON PARAMETRLARINI OPTIMALLASHTIRISH .....  | 66  |
| <b>Xidirova Saboxat Baxrillayevna</b>  |     |
| ЧИСЛЕННАЯ ОЦЕНКА РАЗВИТИЯ ЗОН КОНЦЕНТРАЦИИ НАПРЯЖЕНИЙ В МАССИВЕ ГОРНЫХ ПОРОД ПРИ ВЛИЯНИИ ПРОЦЕССОВ ДОБЫЧИ В УСЛОВИЯХ РУДНИКА «КЫЗЫЛ-АЛМА» .....  | 70  |
| <b>Салямова Клара, Меликулов Абдусаттар, Уралбаев Абдукахар, Бакиров Гайрат, Зухритдинов Давронбек</b>   |     |
| XUSUSIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI, IT MUTAXASSISLARINING YETISHMASLIGI VA ISHSIZLIKNING TA'LIM SIFATI HAMDA BARQARORLIGIGA TA'SIRI: ILG'OR XORIY TAJRIBASI VA UNING O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA TATBIQ ETILISHI ..... | 77  |
| <b>Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li</b>  |     |
| SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW .....   | 82  |
| <b>Normamatov A. A.</b>  |     |
| IPAKCHILIK KLASTERLARI UCHUN INVESTITSION BOSHQARUV MODELINI ASOSLASH .....  | 87  |
| <b>Elboyeva Shaxzoda Olimovna</b>  |     |
| KICHIK VA O'RTA BIZNES SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK USULLARDA TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI .....  | 94  |
| <b>Nazarov Nazar G'ulom o'g'li</b>   |     |
| OLIY TA'LIM MUASSASALARI BOSHQARUV FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI .....   | 101 |
| <b>Usmanov Sarvar Nigmatovich</b>  |     |



|   |     |
|---|-----|
| РАЗРАБОТКА АДАПТИВНОГО МНОГОЗОНАЛЬНОГО АЛГОРИТМА УПРАВЛЕНИЯ FUZZY-PID ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ РАВНОМЕРНОГО РАСПРЕДЕЛЕНИЯ ВЛАЖНОСТИ В ПРОЦЕССЕ УВЛАЖНЕНИЯ ЗЕРНА.....   | 107 |
| <b>Камариддинов Шохрух Акмал угли</b>   |     |
| SANOAT KLASTERLARIDA “SANOAT 4.0” TECHNOLOGIYALARINI JORIY ETISH VA HAMKORLIK MODELLARI .....   | 113 |
| <b>Mamadaliyev Anaxxon Ziyodillayevich</b>  |     |
| SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW .....  | 119 |
| <b>Normamatov A. A.</b>   |     |
| YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....   | 124 |
| <b>Xudoyberdiyev Norbek Komiljon o'g'li</b>   |     |
| HUDUDIIY TURIZMDA XALQARO ESG MEZONLARINI MILLIY SHAROITGA MOSLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....  | 128 |
| <b>Maxmudova Nodira Uktamovna</b>   |     |
| EVALUATION OF TECHNOLOGICAL LOSSES OF HYDROCARBONS OF LIGHT FRACTIONS IN THE PROCESSES OF COLLECTION AND PRIMARY TREATMENT AT THE MUBARAK FIELDS OF OGPD..... | 134 |
| <b>Norqulov Shohbozbek Samandar ugli</b>  |     |
| АНАЛИЗ СИСТЕМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В БАНКОВСКОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА.....  | 140 |
| <b>Жумадуллаева Дурдона Шухрат кизи</b>   |     |
| XUSUSIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI TA'LIMNING SIFAT VA USTUVORLIGIGA TA'SIRI VA UNI TA'MINLASH YO'LLARI .....                           | 145 |
| <b>Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li</b>   |     |
| O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA VOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI.....                            | 150 |
| <b>Kilichov Nazar Bafoyevich</b>  |     |
| HUDUDLARDA TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING AHOLI DAROMADLARI VA BANDLIGIGA TA'SIRINING TAHLILI .....   | 157 |
| <b>Abdurayimov O'ktam Abdug'ani o'g'li</b>  |     |



# HUDUDLARDA TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING AHOLI DAROMADLARI VA BANDLIGIGA TA'SIRINING TAHLILI

**Abdurayimov O'ktam Abdug'ani o'g'li**

“Ipak yo'li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Daromadlar taqsimotini tadqiq etish va uni turli ijtimoiy-iqtisodiy hamda zamon va makon nuqtayi nazaridan istiqbolli taqqoslash aholi turmush darajasi, ijtimoiy ta'minot darajasi va jamiyat tomonidan yaratilgan moddiy boyliklarni taqsimlashdagi ijtimoiy adolatni baholash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli aholi daromadlarini taqsimlashning statistik tahlillari budjet va ijtimoiy siyosat bo'yicha qarorlar qabul qilishning muhim manbai hisoblanadi. Aholi turmush darajasining yaxshilanishi va daromadlarining o'sishi o'z navbatida turizm rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Maqolada hududlarda turizm xizmatlarini rivojlantirishning aholi daromadlari va bandligiga ta'siri tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** turizm, iqtisodiyot, aholi, daromad, intensiv rivojlanish, turistik mahsulot, qishloq turizmi, ziyorat turizmi, tabiat turizmi, ishsizlik, bandlik, raqobatbardoshlik, turfirma, resurs, iste'molchi, aholi turmush darajasi.

**Аннотация.** Исследование распределения доходов и его перспективное сравнение с различных социально-экономических, временных и пространственных позиций служит основой для оценки уровня жизни населения, уровня социальной обеспеченности и социальной справедливости при распределении материальных благ, создаваемых обществом. Поэтому статистический анализ распределения доходов населения является важной основой для принятия решений в области бюджетной и социальной политики. Улучшение уровня жизни населения и рост его доходов, в свою очередь, оказывают положительное влияние на развитие туризма. В статье представлен анализ влияния развития туристических услуг в регионах на доходы населения и уровень занятости.

**Ключевые слова:** туризм, экономика, население, доход, интенсивное развитие, туристический продукт, сельский туризм, паломнический туризм, природный туризм, безработица, занятость, конкурентоспособность, туристическая фирма, ресурс, потребитель, уровень жизни населения.

**Abstract.** The study of income distribution and its comparative assessment from various socio-economic, temporal, and spatial perspectives provides a basis for evaluating living standards, social welfare, and social justice in the distribution of material wealth created by society. Therefore, statistical analyses of income distribution serve as an important foundation for decision-making in budgetary and social policy. Improvements in living standards and increasing household incomes, in turn, have a positive impact on tourism development. This article analyzes the impact of tourism service development in the regions on population income and employment.

**Keywords:** tourism, economy, population, income, intensive development, tourism product, rural tourism, pilgrimage tourism, nature tourism, unemployment, employment, competitiveness, travel company, resource, consumer, standard of living.

## KIRISH

Daromadlar taqsimotini tadqiq etish va uni turli ijtimoiy-iqtisodiy hamda zamon va makon nuqtayi nazaridan istiqbolli taqqoslash aholi turmush darajasini, ijtimoiy ta'minot darajasini va jamiyat tomonidan yaratilgan moddiy boyliklarni taqsimlashda ijtimoiy adolatni baholash uchun asos bo'ladi. Shu sababli aholi daromadlarini taqsimlashning statistik tahlillari budjet va ijtimoiy siyosat bo'yicha qarorlar qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Aholi turmush darajasining yaxshilanishi, orttirgan daromadning borgan sari o'sib borishi o'z navbatida turizm rivojiga ijobiy ta'sir o'tkazadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aholi daromadlari — bu aholi yoki uning oila a'zolari tomonidan ma'lum davr ichida olingan yoki ishlab chiqarilgan pul va natural mablag'lar yig'indisidir [1]. Ensiklopedik lug'atlarda qayd qilinishicha, “aholi daromadlari — barcha aholiga tegishli pul va natural (mahsulot shaklida) tushumlar hamda ko'rsatilgan bepul xizmatlar summasi; aholining milliy daromaddagi hissasi. Aholining jami turdagi daromadlari manbai — ish haqi, pensiya, stipendiya, nafaqalar, mukofot, foyda, dividend, zayom va lotereya yutug'i, bank to'lagan foiz

puli, ko'chmas mulkdan kelgan renta to'lovi va ijara puli, sug'urta qoplamalari va boshqalardan iborat. Bozor sharoitida aholi daromadlarining eng katta qismi pul shakliga ega. Qishloq aholisi o'zining tomorqa xo'jaligidan ham mahsulot olib, daromad ko'radi va u natural daromadga kiradi. Shuningdek, aholining yordamga muhtoj qatlamlariga bepul mahsulot beriladi va xizmatlar ko'rsatiladi (bepul ovqatlanish, kiyim-kechak, dori-darmon, transport va kommunal xizmati va hokazo); bular natural daromadlar hisoblanadi. Aholi daromadlari nominal va real daromadlarga bo'linadi. Nominal daromad aholi muayyan pul summasi shaklida olgan daromad bo'lib, inflyatsiya ta'sirida uning xarid qobiliyati pasayishi mumkin. Real daromad — pul shaklidagi daromadga amalda qanday miqdorda iste'mol buyumlari va xizmatlar xarid etish mumkinligini ko'rsatadi. Aholi jon boshiga hisoblangan real daromad aholi turmush darajasining umumlashgan va yaxlit ko'rsatkichi hisoblanadi. Iqtisodiyotda aholi yalpi pul daromadlaridan barcha majburiy va ixtiyoriy to'lovlar (solliqlar, qarz puli, badallar) chegirib tashlangandan so'ng uning qo'lga tegadigan daromad ham muhim ahamiyatga ega. Aholi qo'lga tegadigan daromad miqdoriga solliqlar kuchli ta'sir etadi" [2].

Aholining daromadlari aholi uchun shaxsiy ehtiyojlarini qondirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Aholi daromadlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- mehnati uchun olgan ish haqi va boshqa to'lovlar;
- individual mehnat hamda tadbirkorlik faoliyatidan daromad;
- nafaqa, stipendiya va boshqa sotsial transfertlar, mulk daromadlari, renta, dividend, ijara daromadlari;
- vorislik, sug'urta, qishloq xo'jaligi mahsulotlari sotishdan tushumlar va boshqalar.

Aholi turmush darajasi sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi eng asosiy omillardan biri aholining umumiy va jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlari hisoblanadi [3].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2015–2030-yillar uchun mo'ljallangan "Barqaror rivojlanish maqsadlari" dasturida 17 ta global maqsadning birinchisi etib "Mamlakatlarda aholining kam ta'minlanganlik darajasini pasaytirish" maqsadi belgilangan. Shuningdek, mazkur hujjatda 8-maqsad sifatida "Samarali bandlikni oshirish hamda erkaklar va xotin-qizlarni munosib ish bilan ta'minlash asosida barqaror va keng qamrovli iqtisodiy o'sishga ko'maklashish" maqsadi belgilangan [4].

Qishloq hududlari aholisining daromadini oshirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar jahonning barcha mamlakatlarida amalga oshirilmoqda. Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasida ham aholi daromadini oshirish va kambag'allik darajasini qisqartirish bo'yicha amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Binobarin, Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da qishloq xo'jaligi xodimlari daromadini 2 barobarga oshirish kerakligi ta'kidlangan va kam ta'minlanganlikni kamaytirish maqsadida mamlakat o'z oldiga 2026-yilga qadar kambag'allik darajasini 2 barobarga kamaytirish va mamlakat eksport hajmini 30 milliard AQSH dollariga yetkazish hamda xususiy sektorning eksportdagi hajmini 60 foizga yetkazishni maqsad qilib qo'ygan [5].

O'zbekiston Respublikasida kambag'allik darajasini kamaytirish maqsadida juda katta salmoqli ishlar qilindi. Xususan, "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" kabi ro'yxatlar shakllantirilib, qishloq hududlari aholisining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga subsidiyalari va kam foizli kreditlar berilmoqda. Bu kabi sa'y-harakatlar zamirida mamlakatda kambag'allik darajasini qisqartirib, qishloq hududlari aholisini xususiy hamda yakka tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullantirish orqali aholi daromadlarini oshirish ko'zda tutilgan [6].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda hududlarda turizm xizmatlarini rivojlantirishning aholi daromadlari va bandligiga ta'sirining tahlili etildi. Mavzu doirasida muammolarni chuqur tahlil etish, ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadida induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil qilish, xorijiy va O'zbekistonda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish va tahlil qilish orqali olingan ma'lumotlardan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Daromadlarni taqsimlash to'g'risidagi bilimlar butun mamlakat aholisining turmush darajasini baholash, shuningdek, turli ijtimoiy guruhlar yoki turli mintaqalar a'zolarining turmush darajasini solishtirish imkonini beradi. Daromad, shuningdek, boshqa mamlakatlarga nisbatan mamlakat aholisining nisbiy turmush darajasini ko'rsatadi. Keng ma'noda, barcha moddiy va ijtimoiy hayot sharoitlari majmuasi bilan belgilanadigan turmush darajasini ushbu umumiy tushuncha orqali aniqlab bo'lmaydi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, O'zbekiston Respublikasida aholi daromadlari yildan yilga o'sish sur'atini qayd etmoqda.

Mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda turizmning rolini aniqlash uchun uning qishloq joylaridagi uy xo'jaliklari daromadiga qo'shgan hissasini aniqlash muhimdir (1-jadval).



## 1-jadval

## O'zbekiston Respublikasida aholi umumiy daromadlarining 2020-2024 yillar davomidagi holati darajasi[7]

| Ko'rsatkichlar nomi                                 | 2020     | 2021     | 2022     | 2023     | 2024     |
|---|----------|----------|----------|----------|----------|
| Aholi umumiy daromadlari, mlrd. so'm                | 431182,4 | 538450,7 | 654993,3 | 756084,2 | 896274,4 |
| Aholi jon boshiga umumiy daromadlar, ming so'm      | 12595,9  | 15421,7  | 18379,9  | 20764,5  | 24111,9  |
| Aholi real umumiy daromadlari, mlrd.so'm            | 381813,9 | 485834,8 | 587754,2 | 687536,8 | 817470,3 |
| Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar, ming so'm | 11067,1  | 13880,9  | 16326,5  | 18836,6  | 22093,8  |


Ushbu qishloq joylarida turizmning uy xo'jaliklari daromadlariga qo'shadigan hissasini hisoblash respondentlarning ma'lum maoshlari va ularning oylik uy xo'jaliklari daromadlari asosida amalga oshirildi.

Bizningcha, O'zbekistonda turizm xizmatlari sohasini rivojlantirish, turizm xizmatlarining sifati va samaradorligini jahon talabi darajasiga yetkazish hamda mamlakat turizm jozibadorligini oshirish uchun turoperatorlarning turizm bozoridagi mavqeini mustahkamlash zarur (1-rasm).



1-rasm. 2016- 2024 yillarda O'zbekistonda aholi bandligi ko'rsatkichlar holati[8]

1-rasm tahlil natijalari 2016–2024-yillarda O'zbekistonda aholi bandligi ko'rsatkichlari keyingi o'n yil davomida (pandemiya davrini hisobga olmaganda darajasi bir qadar pasaygan bo'lsa-da,) jami ish bilan band aholi sonining milliy iqtisodiyot tarmoqlari tarkibida sezilarli o'sib borganini ko'rsatdi. Xususan, ushbu davr mobaynida mamlakatda aholi bandligi holati pandemiya davridan so'ng 2021-yilga nisbatan 2024-yilga kelib 106,2 foizga o'sgan. Bundan xulosa qilish mumkinki, so'nggi yillarda O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishga hukumat tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda. Lekin, bunda kadrlarning turizm sohasida tutgan o'rni va ularning faoliyati samaradorligi aniq baholanmagan, ularning faoliyatidagi muammo va kamchiliklarni bartaraf qilishga yetarli darajada ahamiyat berilmagan. Vaholanki, turizm sohasi rivojlangan davlatlarda kadrlar kelayotgan sayyohlarning birlamchi talablarini qanoatlantiruvchi, turizm xizmatlari sohasining eng muhim bo'g'ini sifatida qaraladi (2-rasm).



1-rasm.2016 – 2024-yillarda O‘zbekistonda turizm sohasida aholi bandlik dinamikasi (ming kishi) [9]

Tahlil natijalari 2016–2024-yillarda O‘zbekistonda turizm sohasida bandlik ko‘rsatkichi o‘sib borganini ko‘rsatdi (2.8-rasm). Ushbu davr mobaynida 2016-yilda turizm sohasida aholining bandligi 170,9 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda esa sohada aholi bandligi 290,6 ming kishiga yetgan. Keyingi o‘n yil davomida mamlakatda turizm sohasida aholining bandligi 119,7 ming kishiga ortgan yoki 170,1 foizga oshgan.

Ammo, tadqiqotlarimiz natijalari o‘rganilayotgan davr mobaynida milliy iqtisodiyot miqyosida band aholi tarkibida turizm xizmatlarining tez sur‘atlarda oshib borayotganini ijobiy baholash mumkin bo‘lsa-da, ushbu ko‘rsatkich rivojlangan davlatlar darajasidan ancha past ekanligini e‘tirof etish zarurligidan dalolat beradi. Masalan, ushbu ko‘rsatkich AQSH va Yevropa mamlakatlarida o‘rtacha 6–8 foizni tashkil qilsa, Rossiya Federatsiyasida o‘rtacha 3,5 foizni va qo‘shni Qozog‘istonda esa 3,8 foizni tashkil qiladi [10]. Shuningdek, O‘zbekistonda turizm xizmatlari sohasining jami ish bilan band aholi tarkibidagi ulushi qoniqarli darajada emasligini, ya‘ni 2,1 foizni (290,6/14374,3) tashkil etishini ham aniq ko‘rish mumkin. Turizm xizmatlari sohasida band bo‘lgan bir ishchiga to‘g‘ri keladigan aholi sonini hisobga olganda ham buning aniq guvohi bo‘lish mumkin.

Tizim nuqtai nazaridan turizmni tashkil etishda mahalliy aholi manfaatlarini inobatga olgan holda namunaviy loyihalarni yaratish, ularni amalga oshirishda real ijtimoiy-iqtisodiy foyda olish asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Turizmda bandlik uy xo‘jaliklarining daromadlariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi, ammo xavfga ta‘siri ikki xil bo‘lishi mumkin: agar diversifikatsiya kuchaysa, bu xavfni kamaytirishi mumkin, ammo turizmga bo‘lgan talab o‘zgaruvchan bo‘lgan hududlarda uy xo‘jaliklari turizmga suyansa, xavfni oshirishi mumkin, chunki turizm ham iqtisodiy, ham iqtisodiy bo‘lmagan ekzogen zarbalarga moyil bo‘ladi. Umuman olganda, o‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu chekka qishloq joylarda turizm taklif etayotgan yuqori darajadagi ish bilan ta‘minlanganlik uy xo‘jaliklari uchun xavfsizroq va ishonchli daromad manbai bo‘lib xizmat qiladi, ular ko‘pincha boshqa hollarda, ya‘ni qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohasidan bunday daromadga ega bo‘lmaydilar [11].

Turizm xodimlarining aktivlar va inson kapitaliga (ta‘lim orqali) sarmoya kiritish qobiliyati kelajakdagi kambag‘allikni qisqartirish imkoniyatini oshiradi.

Turizm obyektlarida xizmat ko‘rsatish sektorining rivojlanishi ular joylashgan qishloq hududlarida tadbirkorlik subyektlari soni va ko‘lamining kengayishi orqali ayollar va yoshlar bandligi hamda daromadlarining oshishiga, qishloq hududlarida kambag‘allikni qisqartirishga va farovonlikni oshirishga xizmat qiladi [12].

Turizmni rivojlantirishda xalqaro ilg‘or tajribalardan foydalanish, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda turizmni samarali tashkil qilish mexanizmlarini takomillashtirish, turizm tarmog‘iga klasterlarni joriy qilish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hamda tarmoqda investitsion loyihalarning samaradorligini hisoblash uchun takomillashtirilgan va mahalliy sharoitlarga moslashtirilgan baholash usullari, hisoblash formulalari, amaliy kompyuter dasturlari va mobil ilovalarni ishlab chiqishga katta ehtiyoj mavjudligi aniqlandi. Bu orqali ilmiy izlanishlarimizni shu faoliyatga qaratishimiz lozimligi kelib chiqmoqda.

Biz tadqiqotlarimiz davomida Samarqand shahri, Samarqand tumani, Urgut tumani, Nurobod tumani, Jomboy tumani va Bulung‘ur tumanidagi turizm obyektlari joylashgan hududlarda aholi o‘rtasida 200 ta so‘rovnoma o‘tkazdik.

So‘ralgan 200 nafar respondentdan 100 nafari erkak (50 foiz) va 100 nafari ayol (50 foiz) edi. Respondentlarning aksariyati 25 yosh va undan katta (2-jadval). Respondentning o‘rtacha yoshi 25 yoshni tashkil etdi. So‘ralgan respondentlarning ko‘pchiligi 15–39 yosh (43,71 foiz), keyin 40–59 yosh (39,52 foiz) va 60 yoshdan katta (16,77 foiz). Respondentlarning 26 foizi maktabda tahsil olsa, 73,66 foizi kollej, texnikumni



tamomlagan yoki undan yuqori akademik malakaga ega. Asosiy tirikchilik manbai qishloq xo'jaligi ekanligi aniqlandi (2-jadval).

2-jadval  
Respondentlarning ijtimoiy-demografik ma'lumotlari<sup>1</sup>

| № | Ijtimoiy-demografik xususiyatlari | Kategoriyalar                                       | Respondentlar | %     |
|---|-----------------------------------|---|---------------|-------|
| 1 | Jinsi                             | Erkak   | 100           | 50    |
|   |                                   | Ayol  | 100           | 50    |
| 2 | Yoshi                             | Yosh (15-39)  | 73            | 43,71 |
|   |                                   | O'rta yosh (40-59)                                  | 66            | 39,52 |
|   |                                   | Keksa yosh (60 va undan yuqori)                     | 28            | 16,77 |
| 3 | Ma'lumoti                         | Maktab darajasida                                   | 44            | 26,35 |
|   |                                   | Kollej (texnikum) darajasida                        | 108           | 64,67 |
|   |                                   | Universitet darajasida                              | 15            | 8,98  |
| 4 | Kasb-hunari                       | Qishloq xo'jaligi                                   | 136           | 81,44 |
|   |                                   | Biznes  | 16            | 9,58  |
|   |                                   | Boshqalar (davlat ishlari, pensiya, pul o'tkazmasi) | 15            | 8,98  |
| 5 | Oila daromadi (oylik)             | Kam (2 mlndan kam)                                  | 139           | 83,23 |
|   |                                   | O'rtacha (2 dan 5 mln gacha)                        | 22            | 13,17 |
|   |                                   | Yuqori (5 mln dan yuqori)                           | 6             | 3,59  |

So'rovnoma natijalariga ko'ra, turizm o'z turmush tarzini o'zgartirdi deb hisoblagan respondentlar "Ha", aks holda esa "Yo'q" deb javob berishdi. Respondentlardan turizmga qiziqish darajasi haqida so'raldi va ularning javoblari "yuqori", "o'rta" hamda "past" toifalarga tasniflandi. Ushbu ikki javob varianti ("Ha" va "Yo'q") hamda uchta javob toifasi ("yuqori", "o'rta" va "past") Xi-kvadrat testida qo'llanildi (3-jadval).

3-jadval  
O'zgaruvchilar va respondentlarning Samarqand viloyati turizm hududiga bo'lgan munosabatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik<sup>2</sup>

| № | Ijtimoiy-demografik xususiyatlari | Kategoriyalar                                       | Qiziqadi | Qiziqmaydi | Xi-kvadrat testi (p-qiyamati) |
|---|-----------------------------------|---|----------|------------|-------------------------------|
| 1 | Jinsi                             | Erkak   | 64       | 21         | 0,094                         |
|   |                                   | Ayol  | 54       | 28         |                               |
| 2 | Yoshi                             | <25   | 11       | 3          | 0,498                         |
|   |                                   | >25   | 107      | 46         |                               |
| 3 | Ma'lumoti                         | Maktab darajasida                                   | 24       | 20         | 0,016                         |
|   |                                   | kollej (texnikum) va universitet darajasida         | 94       | 29         |                               |
| 4 | Kasb-hunari                       | Qishloq xo'jaligi                                   | 94       | 42         | 0,000                         |
|   |                                   | Biznes  | 15       | 1          |                               |
|   |                                   | Boshqalar (davlat ishlari, pensiya, pul o'tkazmasi) | 9        | 6          |                               |
| 5 | Daromad                           | Yuqori  | 30       | 8          | 0,0127                        |
|   |                                   | Past  | 83       | 41         |                               |

Natijalar shuni ko'rsatdiki, respondentlarning 70 foizdan ortig'i o'z hududida turizmga yuqori yoki o'rtacha qiziqish bildirgan. Qiziqishning yuqori bo'lishi sabablaridan biri mahalliy aholining turizmdan foyda ko'rganligidir.

1 Muallif tomonidan tahlil qilingan.

2 Muallif tomonidan tahlil qilingan.

Turli ijtimoiy-demografik xususiyatlar va respondentlarning turizmga bo'lgan qiziqishlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun Xi-kvadrat testi o'tkazildi. Beshta o'zgaruvchi orasida ma'lumot darajasi ( $p = 0,016$ ) va kasb-hunari ( $p < 0,001$ ) mahalliy aholining turizmga qiziqishi bilan statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlikka ega bo'lib, 95 foizlik ahamiyatlilik darajasida baholandi (4-jadval).

4-jadval  
Hududlarda aholi bandligiga turizmning ta'siri<sup>3</sup>

| № | Ijtimoiy-demografik xususiyatlari | Kategoriyalar                                       | Aholi bandligi oshadi | O'zgarish yo'q | Xi-kvadrat testi (p-qiymati) |
|---|-----------------------------------|---|-----------------------|----------------|------------------------------|
| 1 | Jinsi                             | Erkak   | 81                    | 4              | 0,131                        |
|   |                                   | Ayol  | 73                    | 9              |                              |
| 2 | Yoshi                             | <25   | 11                    | 3              | 0,046                        |
|   |                                   | >25   | 143                   | 10             |                              |
| 3 | Ma'lumoti                         | Maktab darajasida                                   | 41                    | 3              | 0.0380                       |
|   |                                   | kollej (texnikum) va universitet darajasida         | 113                   | 10             |                              |
| 4 | Kasb-hunari                       | Qishloq xo'jaligi                                   | 125                   | 11             | 0.410                        |
|   |                                   | Biznes  | 14                    | 2              |                              |
|   |                                   | Boshqalar (davlat ishlari, pensiya, pul o'tkazmasi) | 15                    | 0              |                              |
| 5 | Daromad                           | Yuqori  | 35                    | 10             | 0.977                        |
|   |                                   | Past  | 119                   | 3              |                              |

Respondentlarning ko'pchiligi (92 foiz) o'z hududida infratuzilmaning rivojlanishini turizmning bevosita ta'siri deb hisoblaydi. Xi-kvadrat testi shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-demografik omillar orasida faqat yosh va ma'lumot darajasi muhim bo'lib, respondentlarning turizm haqidagi fikrlari infratuzilma rivojlanishiga ta'sir qiladi.

Bizning natijalarimiz shuni ko'rsatdiki, turizmning rivojlanishi turistik maskanlar joylashgan qishloq hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xizmat ko'rsatish sektorining rivojlanishi tadbirkorlik subyektlari soni va ko'lamining kengayishiga, bu orqali ayollar va yoshlar bandligi hamda daromadlarining oshishiga sabab bo'ladi. Yangidan barpo etiladigan umumiy ovqatlanish obyektlari, ko'ngilochar maskanlar aholi punktlarining ko'rkamligini oshirish bilan birga, mahalliy aholi uchun ham ko'rsatilayotgan xizmatlar ko'lamini kengaytirib, bularning barchasi birgalikda qishloq hududlarida kambag'allikni kamaytirishga va farovonlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, turistik maskanlardan haddan ortiq foydalanish ularning yemirilishiga olib kelib, ushbu maskanlarga kelayotgan turistlar oqimini maqbullashtirishning iqtisodiy-tashkiliy asoslarini ishlab chiqishni talab etadi. Bundan tashqari, insonlar foydalanishida bo'lgan turistik maskanlar tabiiy tiklanish salohiyatiga qo'shimcha ravishda, undan keladigan daromad hisobiga doimiy ravishda tozalash va tiklash tadbirlarini olib borishni talab qiladi.

O'rganishlar jarayonida quyidagi xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

- chekka qishloq hududlarida mavjud turistik manzillarni aniqlash va ularni ro'yxatga olishni tashkil etish;
- aniqlangan turizm maskanlarini iqtisodiy baholash lozim. Nafaqat yangilarini, balki eski ekoturistik maskanlarning ham bahosini shakllantirish lozim;
- turizm maskanlarida shtatdagi ish faoliyatlarini shakllantirish;
- turizm maskanlarida ish faoliyatini amalga oshiradigan aholining mavsumiy ishlash jarayonini doimiyga aylantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish lozim.

2022–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirishning maqsadli ko'rsatkichlarida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilga borib O'zbekistonga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar soni 11810 ming kishini, turizm xizmatlari eksporti esa 2 170 mln AQSh dollarini tashkil etishi prognoz qilingan. Agar ushbu maqsadli ko'rsatkichlarga erishilsa hamda turizmning bandlik multiplikatori kamida  $Mb = 0,001$  holda o'zgarishsiz qolsin deb faraz qilsak, 2025-yilda O'zbekiston mehnat bozorida kamida 2562 mingta yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyati paydo bo'ladi.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan xulosa shuki, O'zbekiston sharoitida turizm xizmatlari sohasini jadal rivojlantirish, bu orqali mamlakat milliy iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlash hamda mamlakatda bandlik darajasini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishga kuchli e'tibor qaratish zarur:

Mamlakat aholisining daromadlariga mutanosib ravishda iste'mol xarajatlarini, ayniqsa, xizmatlarga bo'lgan iste'mol xarajatlarini oshirib borish lozim. Bunda turizm xizmatlarining jozibadorligini oshirish va tashrif buyuruvchilarning xilma-xil ehtiyojlarini qondirishning samarali yo'llarini izlab topishga e'tibor qaratish zarur.

Mamlakatda turistik infratuzilma hamda turizm xizmatlarining sifat va samaradorligini xalqaro talab darajasiga yetkazish, turizm xizmatlarining yangi turlarini tashkil etish va ommalashtirish hamda bu orqali turistik xizmatlar eksportini oshirish, pirovardida har bir sayyohga to'g'ri keladigan o'rtacha xarajat summasini oshirib borish.

Mamlakatning mavjud turistik salohiyatini yuzaga chiqarish va bu orqali mamlakatning turistik jozibadorligini yaxshilab, tashrif buyuruvchi xorijiy sayyohlar sonini oshirishga erishish.

Ushbu tadbirlarning amalga oshirilishi turizm xizmatlari sohasining O'zbekiston milliy iqtisodiyotidagi mavqeyining mustahkamlanishiga hamda mehnat bozoridagi bandlik darajasini ta'minlashda soha ulushining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://www.elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/14358-aholining-turmush-darajasi-va-uning-daromadlari>
2. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Aholi\\_daromadlari](https://uz.wikipedia.org/wiki/Aholi_daromadlari).
3. T.Turgunov, I.Jalolov "Aholi turmush darajasi rivojlanishi statistic baholash: milliy va xalqaro tajriba" - "Jamiyat va boshqaruv" №4, 2018 y.
4. United Nations.Department of Economic and Social Affairs. Sustainable Development. (<https://sustainabledevelopment.un.org/content/documents/6754T>).
5. Sh. Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston taraqqiyoti strategiyasi"-T. "O'zbekiston" nashiryoti 2022 yil. 416 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi - stat.uz. (murojaat qilingan sana 02.05.2025 yil, soat 23:55)
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi - stat.uz. (murojaat qilingan sana 02.05.2025 yil, soat 23:55)
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi - stat.uz. (murojaat qilingan sana 02.05.2025 yil, soat 23:55)
10. [www.knoema.ru](http://www.knoema.ru) xalqaro statistik rasmiy veb sayti ma'lumotlari (murojaat qilingan sana 03.05.2025 yil, soat 10:24)
11. Susan Snyman "The impact of ecotourism employment on rural household incomes and social welfare in six southern African countries" January 2014 [Tourism and Hospitality Research](#) 14(1-2):37-52.

# **muhandislik**

# **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

## 2026. № 7

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)